

## GEOGRAFIYA DARSLARIDA LOYIHA TA'LIMIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Xilola Dilshodjon-qizi Muxammadiyeva  
Ilmiy rahbar: Sindor Rajabovich Mirzaliyev  
Samarqand davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada geografiya darslarida loyiha ta'limi texnologiyasidan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Loyiha metodi orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish va yechim topish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, geografiya fanini o'qitishda loyihaviy yondashuvni samarali tashkil etish bosqichlari, metod va usullari hamda ularning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni ko'rsatib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *loyiha ta'limi, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, qiziqish, qobiliyat, interfaol metodlar, informatsion loyihalar, tadqiqot loyihalari*

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga yo'naltirish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda loyiha ta'limi alohida o'rin tutadi. Geografiya fani esa o'zining mazmuni jihatidan hayot bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda loyihaviy yondashuvni qo'llash o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Loyiha ta'limi o'quvchilarga real hayotiy muammolarni o'rganish, ularni tahlil qilish va mustaqil ravishda yechim topish imkonini beradi. Bu esa geografiya darslarini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham boyitadi. Shu sababli geografiya fanini o'qitishda loyiha metodidan foydalanishning samarali yo'llarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Loyihalash texnologiyasi jahon pedagogikasida mutlaqo yangi hodisa hisoblanmaydi, u XX asrning ilk o'n yilliklarida yuzaga kelgan. Bu uslub, shuningdek, muammolar texnologiyasi nomi bilan ham yuritiladi. “Loyiha” atamasi chet tilidan o'zlashtirilgan bo'lib, lotincha “projectus” so'zidan kelib chiqqan. Lug'aviy jihatdan “oldinga yo'naltirilgan” degan tushunchani anglatadi. Bugungi kunda ushbu tushuncha nafaqat hujjatlar to'plami yoki chizma, balki aniq bir g'oyani amalga oshirishga qaratilgan tizimli harakatlar majmuasi sifatida talqin etiladi. Loyihalash texnologiyasi jahon pedagogikasida yangilik hisoblanmaydi, chunki, u 1920 yillarda amerikalik faylasuf va pedagog J.Dyu va uning shogirdi V.X.Kilipatrik tomonidan ishlab chiqilgan loyihalash metodi asosida vujudga kelgan. Loyihalash texnologiyasining asosiy g'oyasi amaliy yoki nazariy ahamiyatga molik bo'lgan muammoni hal etish jarayonida ko'zlangan natijaga erishishdir. Loyihalash texnologiyasining asosiy mohiyati ma'lum bir muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali o'quvchilarning qiziqishlarini orttirish, loyihalash faoliyatini shakllantirish, ularning tegishli bilimlarni egallashlari, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish sanaladi.

Loyiha texnologiyasini boshqa sohalar talqinida ham uchratish mumkin. Masalan, muayyan inshoot yoki buyumni bunyod etish uchun talab qilinadigan hujjatlar majmuasi; hujjatning ilk qoralama nusxasi yoki ma'lum bir g'oya va reja ma'nosini bildiradi. Loyihalash texnologiyasi mustaqil bilish hamda amaliy harakatlarni yo'lga qo'yish, dunyoqarashni boyitish, kutilgan natijalarga yetishish yo'lini mohirona rejalashtirish ko'nikmasini hosil qilish, shaxsiy fikrni bayon qilish va asoslash mahorati, mustaqil bilim olish hamda ilmiy-izlanish va tadqiqotchilik ishlariga qaratilgan ijodiy imkoniyatlarni o'stirishga xizmat qiladi.

Bu usul bilim va malakalarni, tahlil qilish va baholashni nazarda tutuvchi ta'limning majmuaviy usulini amalga oshiradi. Loyiha usulida o'quvchilar rejalashtirishda, tashkil qilishda, tekshirishda,

tahlil qilishda va bajarilgan ishning natijalarini baholashda ko‘proq ishtirok etadilar. Ta’lim oluvchilar ayrim kichik loyiqa ishlarini, diplom va kurs loyihalari, bitiruv ishlarini ilmiy asoslangan holda loyihalashtiradilar, mustaqilbajaradilar, ularni yozadilar, taqdimot qiladilar, qo‘yilgan maqsad va natijalarni tahlil qiladilar

Loyiha ta’limi zamonaviy pedagogik texnologiyalar tarkibida muhim o‘rin tutib, o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilarda amaliy ko‘nikma va malakalar shakllanib, real hayotiy muammolarni hal etish tajribasi rivojlanadi. Loyiha faoliyati jarayonida o‘quvchilar axborotni tahlil qilish, muammolarga turli nuqtai nazardan yondashish va asoslangan xulosalar chiqarish orqali tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini takomillashtiradilar. Shuningdek, loyiha ustida hamkorlikda ishlash o‘quvchilarning muloqot madaniyati, jamoada ishlash va mas’uliyatni taqsimlash kompetensiyalarini rivojlantiradi. Mazkur metod ijodiy fikrlashni rag‘batlantirib, o‘quvchilarning mustaqil izlanish olib borishiga va innovatsion g‘oyalarni ilgari surishiga imkon yaratadi. Natijada ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqish va ichki motivatsiya ortib, o‘quvchilarning o‘zlashtirish samaradorligi yanada yuqori darajaga ko‘tariladi.

Loyiha ta’limi ko‘plab pedagogik afzalliklarga ega bo‘lishiga qaramasdan, uni amaliyotga joriy etishda ayrim cheklov va murakkabliklar ham mavjud. Avvalo, loyiha faoliyatini samarali tashkil etish ko‘proq vaqt va moddiy-texnik resurslarni talab qiladi. Loyiha topshiriqlarini rejalashtirish, amalga oshirish va natijalarni tahlil qilish jarayoni an’anaviy darslarga nisbatan ancha uzoq davom etishi mumkin. Shuningdek, mazkur metodni muvaffaqiyatli qo‘llash o‘qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiya, metodik tayyorgarlik va boshqaruv ko‘nikmalarini talab etadi. Bundan tashqari, loyiha ta’limi barcha o‘quvchilarning individual qobiliyati, qiziqishi va tayyorgarlik darajasiga bir xil darajada mos kelmasligi mumkin. Ayrim o‘quvchilar mustaqil faoliyat yuritishda qiyinchiliklarga duch kelishlari ehtimoldan xoli emas. Yana bir muhim jihat shundaki, loyiha faoliyati natijalarini xolis va aniq baholash murakkab jarayon hisoblanadi, chunki bunda nafaqat yakuniy mahsulot, balki o‘quvchilarning ijodiy yondashuvi, hamkorlik faoliyati va jarayon davomida erishilgan natijalar ham inobatga olinishi lozim.

Geografiya darslarida loyiha ta’limidan foydalanish o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi va ularni real dunyo muammolarini hal qilishga o‘rgatadi. Bu esa ularning bilimini mustahkamlab, fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Geografiyani o‘qitishda o‘qituvchi loyihalash texnologiyasidan o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda nafaqat darsda o‘quv muammolarini hal etishda, balki darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ijodiy muammolarni hal etishda foydalanishi zarur.

Geografiya darslarida o‘quv loyihalarining quyidagi turlarini qo‘llash mumkin:

➤ informatsion loyihalar axborotni izlash, topish va qayta ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga asoslangan, shuningdek kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

➤ amaliy loyihalar egallangan bilimlarni hayotda qo‘llay olish, muammolarning amaliy yechimlarini topishga yordam beradi.

➤ ijodiy loyihalar o‘quvchida ijodiy xususiyatlarni, tashabbuskorlik, mantiqiy fikrlashni shakllantiradi.

➤ tadqiqot loyihalari tanqidiy fikrlash, xotira, izlanuvchanlik va tasavvurni shakllanishiga yordam beradi.

Darslarda qo‘llash mumkin bo‘lgan loyiha metodlaridan biri “Iqtisodiyot daraxti” usuli. Buni jahon xo‘jaligi bo‘limini mustahkamlash darsida qo‘llash mumkin. Bu metodda katta daraxt rasmi chiziladi. Ildiz - tabiiy resurslar, tana qismi - sanoat mahsulotlari, shoxlar - transport va xizmat

ko‘rsatish, barg va mevalar eksport mahsulotlari. O‘quvchilar plastilin yoki qog‘ozdan sanoat mahsulotlarini yasaydi. Yasagan ishlarini daraxt chizmasiga yopishtiradi. Bu usul mavzuni oddiy va tushunarli ko‘rsatadi. O‘quvchilar guruhlariga bo‘linib, plastilin, rangli qog‘oz, karton va boshqa qo‘shimcha materiallardan avtomobil, samolyot, telefon, neft quvuri, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, zavod va boshqalarning maketlarini yasaydi. Har bir guruh yasagan mahsulotini daraxtning mos qismiga yopishtiradi va qisqacha izoh beradi. Masalan, avtomobil - sanoat shoxiga, paxta - daraxt tanasiga, neft - ildiz qismiga joylashtiriladi. Daraxt atrofi davlat bayroqlari, iqtisodiy belgilar va kichik diagrammalar bilan bezatiladi.

Dars yakunida “jonli iqtisodiyot daraxti” hosil bo‘ladi. Bu usul o‘quvchilarning ijodkorligini, tasavvurini, jamoaviy ishlash ko‘nikmasini, mavzuni amaliy tushunishini rivojlantiradi hamda darsni qiziqarli va esda qolarli tashkil etishga yordam beradi.

Xulosa. Dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishga katta yordam beradi. Interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, o‘quvchilarda erkin fikrlash, mustaqil qaror va yechimlar qabul qilish kabi ko‘nikmalar shakllanadi va rivojlanadi. Xususan, geografiya darslarida loyiha ta’limidan foydalanish o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi va ularni real dunyo muammolarini hal qilishga o‘rgatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arisanti, D., Puji Xastuti, K., Arif Setiavan, F. va Imavvati, R. (2020). Loyiha asosida o‘qitish modeli orqali geografiyani o‘rganishni takomillashtirish. *Xalqaro psixososyal rehabilitatsiya jurnali*, 24 (5), 585-594. <https://doi.org/10.61841/gg4rrd02>
2. F.A.Xamroyeva, A.I.Hamroyev. Geografiyani o‘qitishda innovatsion metodlar. // O‘quv-metodik qo‘llanma. – Samarqand, – “ACCESS SERVICE” nashriyoti, 2025–y. – 74 bet.
3. H.Vaxobov, N.R.Alimqulov, N.B.Sultanova. Geografiya o‘qitish metodikasi. // Darslik. Toshkent 2020-y.
4. Djordjevic, I.; Jovanovic, S.; Markovic, M.; Andjelkovic, S.; Prnjat, Z.; Matović, S.; Valjarević, A. Geografiyada loyihaga asoslangan ta'lim va uning o‘quvchilarning qadriyatlarini, munosabatlari va atrof-muhitga ta'sirini rivojlantirishga ta'siri. *Barqarorlik* 2026, 18 , 725. <https://doi.org/10.3390/su18020725>
5. L.S.Sayfiyevna. (2023). Geografiya darslarida o‘quvchilar mustaqil faoliyatini tashkil etish. *Ustozlar Uchun*, 50(1), 98–101. Retrieved from <https://pedagogs.uz/01/article/view/42>
6. N.Sh.Shadiyeva. Tabiiyot va geografiya o‘qitish metodikasi. Buxoro, 2022-y.
7. Umumiy o‘rta ta’limida geografiya fanini o‘qitish metodikasi. // Metodik qo‘llanma. Toshkent- 2020
8. Arisanti, D., Puji Xastuti, K., Arif Setiavan, F. va Imavvati, R. (2020). Loyiha asosida o‘qitish modeli orqali geografiyani o‘rganishni takomillashtirish. *Xalqaro psixososyal rehabilitatsiya jurnali*, 24 (5), 585-594. <https://doi.org/10.61841/gg4rrd02>